

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, G.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi xorij olimlarining tadqiqotlarda.....	17
B.Q.Qurbanova	
Ta'llimning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishga doir qarashlar	22
S.M.Zokirova, M.R.Maxkamov	
O'zbekistondagi ta'llimi tojik tilida olib boradigan maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga davlat tilini o'qitish jarayonida monolog va dialogning o'rni	27
G.I.Yuldasheva, O.M.Mirzaxamdamova	
Sotsiologik tadqiqotlarda dasturiy ta'minot va Ibm Spss dasturidan foydalanish omillari.....	33
Sh.A.Ro'zaliyev	
Informatika turkum fanlarini o'qitishda geymifikatsiyadan foydalanish bosqichlarini axborotlarni qayta ishslash va uzatish asosida tashkil etishning metodik jihatlari	40
A.R.Abdullayeva	
Nikoh yoshi - oila barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy psixologik omili	43
N.U.Alijonov	
Ta'llim sohasidagi rahbarlarning psixologik salomatligini tadqiq etish.....	49
M.Y.Atadjanov	
Mahalla – milliy identiklilikka tahdidlardan himoya omili	54
N.N.Ahmadjonov	
Ijtimoiy psixologiyada shaxsiy qadriyatlarini aniqlash tizimi.....	60
M.A.Djalalova	
Maktabgacha yosh davri bolalarining psixologik salomatligining empirik tahlili	65
N.A.Ergasheva	
Psixologik salomatlik hamda uning mezonlari.....	69
Sh.K.Mamajonova	
O'smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini empirik o'rganish	73
D.M.Mo'minov	
Ommaviy axborot vositalaridagi manipulyativ omillarni inson ongiga tasirini o'rganish	81
D.M.Nuralieva	
O'zbek oilalarida oila qurish motivlarini o'rganishda empirik tadqiq etilganligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	87
R.S.Nuriddinov	
Bo'lajak pedagoglar psixologik salomatligiga ta'sir etuvchi omillar.....	92
M.J.Rajabov	
Oilaviy munosabatlarda transakt rollar va ularning tahlili	96
F.S.Soliyev	
Zamonaviy ta'llim muhitida psixologik xavfsizlik va ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksini oshirishning psixologik mexanizmlari.....	100
Sh.A.Usmonov	
Oilada bolaning o'zini anglashida ota-onas shaxsining roli	106
M.B.Yuldasheva	
Yolg'izlik hissining ifodalananish xususiyatlari	111
G.S.Yunusova	
O'quvchilarni kasb–hunarga yo'nalganligini psixologik tahlili	116
M.S.Zakirova	
Bolada shaxs fazilatlarini shakllanishida "Men" konsepsiyasining o'rni	121
H.A.G'anieva	
Maktab o'quvchilarining kasb tanlashga bo'lgan motivlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari....	128
Л.Ю.Абдукадирова, Д.В.Миронов	
Интернет-зависимость школьников, как фактор снижения показателей в исследованиях PISA	134



УО'К: 301.085.15.

**МАКТАВ О'QUVCHILARINING KASB TANLASHGA BO'LGAN MOTIVLARINI
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.**

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МОТИВОВ ВЫБОРА
ПРОФЕССИИ ШКОЛЬНИКАМИ.**

**SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SCHOOLCHILDREN'S MOTIVES
FOR CHOOSING A PROFESSION.**

G'anieva Halimaxon Axmatxonovna 

Farg'ona davlat universiteti, Psixologiya kafedrasи dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'rta maktab o'quvchilarini kasb tanlashga tayyorlash zarurati va kasb tanlashda motivatsion omillarning roli va ichki motivatsion omillarni shakllantirish usullarini hamda maktab o'quvchilarining kasb tanlashga bo'lgan motivlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari nazariy va amaliy tahlil etilgan.

Аннотация

В данной статье теоретически и обоснованы необходимость подготовки старшеклассников к выбору профессии, роль мотивационных факторов в выборе профессии, способы формирования внутренних мотивационных факторов, а также социально-психологические характеристики мотивации выбора профессии школьниками. практически проанализировано.

Abstract

This article theoretically substantiates the need to prepare high school students for choosing a profession, the role of motivational factors in choosing a profession, methods of forming internal motivational factors, as well as the socio-psychological characteristics of motivation for choosing a profession by schoolchildren. practically analyzed.

Kalit so'zlar: o'quvchi, maktab, kasb, motiv, motivatsiy, ta'lim, kasb tanlash, texnik qobiliyat, intellektual qobiliyat.

Ключевые слова: ученик, школа, профессия, мотив, мотивационный, образование, выбор профессии, техническая, интеллектуальная собственность.

Key words: student, school, profession, motive, motivational, education, choice of profession, technical, intellectual property.

Uzlusiz ta'lilda ta'lim oluvchilarning umumiy va maxsus qobiliyatlarini yuzaga chiqarish kelgusida yoshlarning kasbga yo'naltirish, to'g'ri kasb tanlishi va tanlagan kasbida yuksak muvaffaqiyatlarga erishishining garovi xisoblanib, yoshlarning mustaqil ta'lim olishi va o'z ustida ishchlari uchun imkon yaratadi. Bu esa umumiy va maxsus qibiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishning maxsus diagnostik vositalari va yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishni talab etadi. Ta'lim jarayonida umumiy va maxsus qibiliyatlarini rivojlantirish uchun o'ziga xos ta'lim metodlarini joriy etish, oqilona yo'llar orqali muammolarni yechishga o'rgatish, mustaqil fikrashga va ijodiy izlanishlar olib borishga tayyorlash lozim.

KIRISH

Hozirgi vaqtida yoshlarning kasbiy o'zini o'zi belgilash muammosi shaxsni zamonaviy jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida shakllantirish nuqtai nazaridan yeng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Yosh kishi kasbni, tegishli tahlim muassasasini tanlashi, shuningdek, mamlakatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlari munosabati bilan uning kasbiy rivojlanish yo'lidagi mumkin bo'lgan o'zgarishlarga tayyor bo'lishi kerak. Kasb tanlash inson hayotidagi yeng muxim qadamlardan biridir. To'g'ri tanlov bilan o'smirning individual xususiyatlari kasb talablariga mos keladi. Maktabda kasbga yo'naltirish ishlari o'quvchiga kasb tanlash muammosini to'g'ri xal qilishga yordam berish uchun mo'ljallangan. Bu maktab o'quvchilarini kasbiy tayyorgarlikning asosiy vazifasidir. O'rta maktab bitiruvchisi dastlabki kasbiy o'zini o'zi belgilash masalasiga duch keladi. 9-sinfda allaqachon o'quvchilar o'qishni davom yettirishning mumkin bo'lgan usullari xaqida

PEDAGOGIKA

aniq mahlumot olishlari, kuchlarini baxolashlari va o'quv 'rofilini tanlash to'g'risida qaror qabul qilishlari kerak. Kasb-hunarga yo'naltirish uchun zarur bo'lgan material-bu sizni mahlum bir kasbni belgilashga undagan motivatsion omillar xaqida mahlumot. Kasb-hunarga yo'naltirish uchun zarur bo'lgan material-bu sizni ma'lum bir kasbni belgilashga undagan motivatsion omillar haqida ma'lumotlardir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Motivatsiya mahalliy va xorijiy psixologiyaning asosiy muammolaridan biridir. Xuddi shu paytni o'zida, X. Xekxauzen yozgan edi: motivatsiya psixologiyasi kabi turli tomonlardan yondashish mumkin bo'lgan boshqa keng psixologik tadqiqot sohasi deyarli yo'q. Motivatsiya muammosining rivojlanishi, birinchi navbatda, insonni faollashtirish manbalarini, uning faoliyati, xulq-atvorining rag'batlantiruvchi kuchlarini tahlil qilish, odamni faoliyatga nima undaydi, motiv nima, "nima uchun" degan savolga javob izlash bilan bog'liq va buni amalga oshiradi. Bularning barchasi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Psixologiyada shunday maxsus metodikalar mavjudki, ulardan shaxsning aniq soxalarga nisbatan qobiliyatlarining darajasi to'g'risida aniq malumot olish mumkin. Bizning tadqiqotimizda qo'llanilgan "Texnik qobiliyatni aniqlash usuli" metodikasi aynan ana shunday metodikalar sarasiga kiritiladi.


Rus psixologlari tomonidan ishlab chiqilgan va psixolog X.Sharafutdinova va uning shogirdi U.SHomurotovlар tomonidan modifikatsiya qilingan "Texnik qobiliyatni aniqlash usuli" metodikasi ustida tadqiqot olib bordik. Dastlab metodika bilan tanishib chiqdik, keyin esa ushbu test yordamida tadqiqotlarini Farg'ona shahar 3-umumiy o'rta ta'lif maktabi 9-sinf o'quvchilaridan 100 nafarida o'tkazdik.

NATIJA VA MUHOKAMA

Texnik qobiliyat testi 60 ta to'shiriqdan iborat bo'lib 13 yoshdan yuqori kishilarda kasbga yo'naltirish maqsadida qo'llaniladi. Sinaluvchilarga 60 ta rasm, ya'ni texnik topshiriqlar keltirilgan rasmlar xavola etiladi. 1-misol: ikki variantda, ya'ni A va B variantda xona tasvirlangan. Birinchi xona kamroq jixozlangan, ikkichi xona ko'oroq jixozlangan. SHu yerning o'zida sinaluvchiga savol quyidagicha beriladi: "Qaysi xonada aks-sado yaxshiroq tarqalishi uchun qulayroq qilib moslashtirilgan?"

Bu yerda to'g'ri javob kamroq jixozlangan xona bo'ladi, sababi oarda va boshqa jixozlarning kamligi aks sadoni yaxshiroq tarqalishi uchun qulay xisoblanadi.

Endi jadvaldagagi ma'lumotlarni gistagramma shaklda ko'rgazmali xolda ifodalaymiz.



Tadqiqotimizda qo'llanilgan navbatdagi metodika QTT edi.

Qisqa tanlov testi umumiy aqliy qobiliyat testlari qatoriga kiritilgan bo'lib, "umumiy qobiliyat"larning quyidagi integral ko'rsatgichlarini aniqlashga mo'ljallangan.

- Materialni umumlashtirish va tahlil qilish;
- Tafakkurning egiluchanligi;
- Tafakkurning ko'chuvchanligi;
- Tafakkurning emotsional jihatlari: fikrning chalg'ishi;
- Idroknning tezligi va aniqligi;


- Tildan foydalanish (savodxonlik);
- Mo'jal olish yoki qulay usulni tanlash;
- Fazoviy xayol.

Yag'ni "Qisqa tanlov testi"ning tarkibida 8 ta shkala bo'lib, ularning xar biri intelektning aloxida shkalalar xarakteristikasi, shkalalarga taaluqli savollar va ularning yechimlari xaqida to'xtalib o'tamiz:

Ushbu kategoriyaiga taaluqli barcha to'shiriqlar sinaluvchilardan bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga tezkor ko'chishni, yag'ni tafakkur ko'chuvchanligini talab qiladi.

Ushbu metodika bo'yicha tajribalarda ham "texnik qobiliyat" testida ishtirok etgan barcha sinaluvchilar qatnashdilar va quyidagi ko'rsatgichlarga erishdilar.

Natijalarni quyidagicha histogrammada ko'rgazmali holda ifodalaymiz.



"Qisqa tanlov testi" va "Texnik qobiliyat testi" natijalari taxlili

Tadqiqot ishimizning diagnostik bosqichida 50 nafar o'quvchilar ishtirok etdilar. Ular tadqiqotimizda qo'llanilgan ikkala metodika bo'yicha o'tkazilgan tajribalarda ishtirok etdilar. Ya'ni 50 nafar sinaluvchilarning 2 ta qobiliyat testi bo'yicha natijalarini qo'lga kiritdik. Natijalarni tahlil qilishda psixologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan matematik statistika metodikalaridan K.Pirson korrelyatsiyasi formulasidan foydalandik. "Qisqa tanlov testi" ko'rsatkichlari bilan "Texnik qobiliyat testi" ko'satkichlarini qiyosiy tahlil qildik.

1- jadval

QTT va "Texnik qobiliyat" testi bo'yicha natijalar ko'rsatkichlari.

Nº	x	Dx (x-x̄)	dx ² (x-x̄) ²	y	dy (u- ŷ)	dy ² (u- ŷ) ²	dx dy (x-x̄)(u- ŷ)
1	101	-3	9	210	18	324	-54
2	100	-4	16	152	-40	1600	160
3	137	-33	1089	150	-42	1764	1386
4	149	45	2025	243	51	2601	2295
5	98	-6	36	206	14	196	-84
6	92	-12	144	215	23	529	-276
7	112	8	64	235	43	1849	344
8	102	-2	4	219	27	729	-54
9	96	-8	64	216	24	720	-192
10	94	-10	100	200	8	64	-80
11	151	47	2209	242	50	2500	2350
12	101	-3	9	143	-49	2401	147
13	133	29	841	236	44	1936	1276
14	120	16	256	214	22	484	352
15	106	2	4	220	28	784	56
16	77	-27	729	138	-54	2916	1458
17	157	53	2809	243	51	2601	2703

PEDAGOGIKA

18	94	-10	100	200	8	64	-80
19	134	30	900	182	-10	100	-300
20	90	-14	196	224	32	1024	-448
21	92	-12	144	216	24	576	-288
22	67	-37	1369	142	-68	4624	2516
23	136	32	1024	254	62	3844	1984
24	104	0	0	247	55	3025	0
25	97	-7	49	194	2	4	-14
26	115	41	1681	180	-12	144	-492
27	88	-16	256	250	58	3364	-928
28	89	-15	225	255	63	3969	945
29	94	-10	100	114	-78	6084	780
30	96	-8	64	124	-68	4624	544
31	142	38	1444	220	28	784	1064
32	98	-6	36	192	0	0	0
33	39	-65	4225	166	-26	676	1690
34	102	-2	4	143	49	2401	-98
35	87	-17	289	200	8	64	-136
36	156	52	2704	220	28	784	2456
37	98	-6	36	132	-60	3600	360
38	106	2	4	150	-42	1764	-84
39	156	52	2704	224	32	1024	1564
40	140	36	1296	192	0	0	0
41	95	-9	81	228	36	1296	-324
42	93	-11	121	145	-47	2209	517
43	105	1	1	134	-58	3364	-58
44	85	-19	361	216	24	576	-4546
45	52	-52	2704	134	42	1764	-2184
46	64	-40	1600	152	-40	1600	1600
47	100	-4	16	216	24	576	96
48	93	-11	121	203	11	121	-121
49	102	-2	4	215	23	529	-46
50	52	-52	2704	216	24	576	-1248
Jami	5218	-59	36950	9610	340	79152	20598

Jadvalda keltirilgan.

- 1) x-sinaluvchilarning QTT bo'yicha ko'rsatkichlari.
 - 2) dx yoki $(x-x)$ - har bir ko'rsatkichning o'ttacha arifmetik qiymatdan farqi.
 - 3) dx^2 yoki $(x-x)^2$ - har bir ko'rsatkichning o'ttacha arifmetik qiymatdan farqlarining kvadratlari.
 - 4) u- sinaluvchilaring "Texnik qobiliyat" testi bo'yicha ko'rsatkichlari.
 - 5) dy yoki $(u-\hat{y})$ - xar bir ko'rsatkichning o'ttacha arifmetik qiymatdan farqi.
 - 6) dy^2 yoki $(u-\hat{y})^2$ har bir ko'rsatkichlar o'ttacha arifmetik qiymatdan farqlarining yig'indisi.
 - 7) $dx dy$ yoki $(x-x)(u-\hat{y})$ -o'ttacha arifmetik qiymatdan farqlarning ko'oaytmasidan iborat.
- oirson korrelyatsiyasi ingliz olimi Karl oirson tomonidan ikkita ko'olik o'rtasidagi statistik bog'liqlikning mavjudligini aniqlaydi. Ushbu formula r xarfi bilan belgilanadi.

$$R = \frac{\sum dx \sum dy}{\sqrt{\sum dx^2 \sum dy^2}}$$

Formulaga natijalarni kiritguncha x-ularning o'rtacha arifmetik qiymati topiladi. Ya'ni $x=m/n$ bu yerda $m=50$ nafar sinaluvchilarning QTT bo'yicha to'plagan umumiy ballari yig'indisidan iborat, n -sinaluvchilarning umumiy soni. Ya'ni $x=5218/50=104 \frac{1}{2}$ esa $\hat{y}=m/n$ formula bilan topiladi. Bu yerda ham xuddi x dagi kabi $m=104$ "Texnik qobiliyat testi" bo'yicha sinaluvchilar to'plagan umumiy ballarning yig'indisiga teng, $n=104$ esa sinaluvchilarning sonidan iborat. Demak $\hat{y}=9610/50=192$

x va u ning o'rtacha qiymati to'lgandan so'ng jadvaldagi ustunlar to'ldiriladi. Endi natijalarni formulaga qo'yib mag'lumotni tekshiramiz.

$$R = \frac{\sum dx \sum dy - 229 \cdot 340}{\sqrt{\sum dx^2} \sqrt{\sum dy^2}} = \frac{-77860 - 77860}{\sqrt{55876 \cdot 79152}} = \frac{-155720}{\sqrt{4422526004}} = -1.17$$

$$\sqrt{66502}$$

O'quvchilarning individual faoliyat uslubi ularning umumiy va maxsus qobiliyatları va qiziqishlari bilan bog'liq xolda shakllanadi. Shaxs faoliyatining individual uslubi (FIU) – mehnatda, o'qishda va boshqalarda shaxsga xos malakalar, faoliyatni bajarish metodlari, uslublari bo'lib, u kishining boshlagan faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish borasida qo'yilgan masalalarni xal qilish uslublaridan iborat. Har bir kishining shaxsiy individual xususiyatlari kompleksi biror faoliyat turi talablarini faqat qisman qoniqtirishi mumkin. SHuning uchun kishi ongli yoki ongsiz ravishda o'zining barcha ijobjiy qobiliyati va kuch quvvatini maqsad qilingan ishni bajarish uchun safarbar qiladi. Natijada shaxsda o'ziga xos faoliyat individual uslubi shakllanadi (FIU). Bu uslub muayyan shaxsga xos tipik ish uslubi va metodlaridan iborat. Masalan, o'z faoliyatining ish surhati va ritmini tezlashtirish extiyoji tug'ilganda dinamik tipdagi odam qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli xal qiladi. Buning sabablari ishchanlik, harakatini osongina tezlashtirish qobiliyatiga ega ekanligi va bir xolatdan ikkinchi xolatga o'tish xususiyatlaridan iborat.

Yuqoridagiday vaziyatda inert odam (lanj xolatda) butunlay boshqa vositalardan foydalanadi. U bu vaziyatdan qutilish choralarini qidiradi, ya'ni u oldindan xabar topib signallardan tezroq qutilishni o'ylaydi, oldini olish chora-tadbirlarini topishga ko'proq e'tibor beradi. Ish faoliyati jarayonida bunday insonning o'ziga xos uslub va metodlari shakllanadi.

Biror shaxsga xos FIU universal, «ideal nusxa» sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Tajriba almashuv tariqasida bir insonning individual ish faoliyatiga yetishishni boshqa insonlarga tavsiya qilish yoki majburan qabul qildirish shunday xolatga olib keladiki, bunday odamlar o'z faoliyati qo'ygan vazifalarni bajarish mumkin bo'lmay qoladi.

XULOSA

Yuqorida taqdim qilingan amaliy tahlilimizda ta'lim – tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biri xar-bir shaxsda o'z individual faoliyat uslubini qaror toptirishga yordam berishdan iboratligi isbotlangan.

Kasb tanlash yoshlarni turli kasblar bilan tanishtirish uchun kerakli tadbirlar tizimidir. Proforientatsiya xar bir odamning individual xususiyatlari va jamiyatning extiyojlariga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak;

A) kasblarga xos sotsial-iqtisodiy xarakteristikalar bo'lib, ularda xar-bir kasbga xos mahlumotlar (ularning jamiyatdagi o'rni, istiqboli, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati) batafsil ifodalangan bo'lishi kerak.

B) texnologik xarakteristikalar bo'lib, ularda kasbga xos ish faoliyatining ta'rifi ifodalangan bo'lishi kerak (ish qanday, qiziqarlimi, ishlab chiqarishda o'rni qanday va xokazo):

V) tibbiy fiziologik va san-gigienik xarakteristikalar bo'lib, ish sharoiti (zararli yoki zararsiz ekanligi), jamoaviy muhit, psixologik vaziyat va boshqalar.

Kasbiy yo'nalişni belgilash juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Xar qanday kasbning shaxs intilishlari va xususiyatlari mos kelishi mehnat samaradorligini ta'minlashning muhim sharti xisoblanadi. Xar bir odamning intilishlari va qobiliyatlariga mos kasbni tanlash shaxsning rivoj topishi uchun muhim omildir. Maktab o'quvchilarida kasb tanlashga qiziqishni shakllantirish ijobjiy ish faoliyati shakllanishiga yordam beradi va o'quvchilarda maqsadga intilish, qat'iylik va iroda mustaxkamligi kabi ijobjiy sifatlarni yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ананьев Б.Г. Проблемы способности. – Москва: 1962. – 18 с.
2. Анастази А., Урбина С. Психологическое тестирование. – СПб.: Питер, 2001. – 686 с.
3. Айзенк.Г.Ю. Проверьте свои способности.- М.: 1992. – 17 с.
4. Baratov SH.R. Ta'limda psixologik xizmat asoslari. - Toshkent: BuxDU, 1999. - В. 77-85.
5. G'aniyeva, X., & Tojimamatov, J. (2022). TALABA YOSHLARNING OILADA FARZAND TARBIYASI HAQIDAGI ZAMONAVIY TUSHUNCHALARINING PSIXOLOGIK TAHLILI. Science and innovation, 1(B7), 517-523.
6. Ganieva, K., & Tojimamatov, J. (2020). THE ATTITUDE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF MENTAL HEALTH OF PERSON. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 87-89).